



## O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimi (2019/2020 o‘quv yiliboshida)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, bu sohada innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali o‘rta maxsus ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 14- martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi PQ-2829-sonli qarori qabul qilindi.


### O‘rta-maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalarining 2019/2020 o‘quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda





Surxondaryo viloyatida 2019/2020 o‘quv yilida jami 61 ta o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyat yuritgan. Ulardan, akademik litseylar soni 3 ta (4,9%) ni va kasb-hunari kollejlari soni 58 ta (95,1%) ni tashkil etgan.


### Kasb-hunar kollejlarning 2019/2020 o‘quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



Surxondaryo viloyati bo‘yicha 2019/2020 o‘quv yili boshida 58 ta kasb-hunar kollejlari mavjud bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich Denov tumanida (11 ta), Termiz shaxrida (8 ta) va eng kam ko‘rsatkich esa Termiz va Qiziriq tumanida (1 ta) to‘g‘ri keladi.

## Kasb-hunar kollejlarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi kishi

(2019/2020 o‘quv yili boshiga)




2019/2020 o‘quv yili boshida kasb-hunar kollejlarda 12,4 ming nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o‘quvchilarning yuqoriligi Termiz shahrida - 3,0 ming kishi, Denov tumanida – 2,5 ming kishiga to‘g‘ri kelgan.



## Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining hududlar kesimidagi taqsimlanishi, kishi

(2019/2020 o'quv yili boshiga)



2019- yilda Surxondaryo viloyati bo'yicha jami 11,7 ming nafar o'quvchi kasb-hunar kollejarini tamomlagan. Shundan, eng ko'p tamomlagan oquvchi soni Termiz shaxrida (2,7 ming nafarni) va Denov tumanida (2,0 ming nafarni) tumani ko'rsatkichiga tegishli, eng kam bitiruvchi esa Qiziriq (0,1 ming nafar) tumaniga to'g'ri kelgan.

**Kasb-hunar kollejlari o'qituvchi xodimlarining  
hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi**  
(2019/2020 o'quv yili boshiga)




	Jami o'qituvchilar, (o'rindoshlarsiz) ming kishi	O'qituvchilar sonidan ayollar
<b>Surxondaryo</b>	<b>1279</b>	<b>162</b>
Termiz sh	342	12
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	32	11
Angor	44	11
Boysun	23	9
Muzrabot	73	11
Denov	280	45
Jarqo'rg'on	10	-
Qumqo'rg'on	57	19
Qiziriq	24	-
Sariosiyo	57	1
Termiz	20	6
Uzun	33	2
Sherabod	100	16
Sho'rchi	184	19

2019/2020 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari jami o'qituvchilar soni 1,3 ming nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. Surxondaryo viloyatiida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 10 nafar o'quvchi to'g'ri kelib, shulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich SHerobot tumanida ya'ni, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 17 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Angor tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 3 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.




**Akademik litseylarning hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda**  
*(2019/2020 o'quv yili boshiga)*



2019/2020 o'quv yili boshiga Surxondaryo viloyati bo'yicha akademik litseylar soni 3 tani tashkil etgan bo'lib, hududlar bo'yicha taqsimlanganda eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahriga to'g'ri kelgan, ya'ni 2 ta akademik litseylar, bu esa Surxondaryo viloyati bo'yicha jami akademik litseylarning 66,7% ini tashkil etadi. Eng kam ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelgan, ya'ni 1 ta akademik litsey.


**Akademik litseylarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning hududlar kesimidagi taqsimlanishi, kishi**  
*(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*



Surxondaryo viloyatida 2019/2020 o‘quv yili boshida akademik litseylarda jami 1,4 ming nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, o‘quvchilar hududlar kesimida taqsimlanganida boshqa hududlarga nisbatan o‘quvchilarning yuqoriligi Termiz shahrida– (0,9ming kishini tashkil etgan) qayd etilgan.



**Akademik litseylarni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi**  
*(2019/2020 o'quv yili boshiga)*



2019- yilda Surxondaryo viloyatida 1,5 ming nafar o'quvchi akademik litseylarni tamomlagan. Shundan eng ko'p bitiruvchi Termiz shahriga to'g'ri kelgan, ya'ni 1,1 ming nafar o'quvchini tashkil etgan bo'lsa, eng kam bitiruvchi esa Jarqo'rq'on tumaniga to'g'ri kelgan, ya'ni 0,2 ming nafar o'quvchi.




**Akademik litseylarda o'qituvchi xodimlarning  
hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi**  
(2019/2020 o'quv yili boshiga)



	Jami o'qituvchilar, (o'rindoshlarsiz) z)ming kishi	O'qituvchilar sonidan ayollar
<b>Surxondaryo</b>	<b>155</b>	<b>43</b>
Termiz sh tumanlar:	112	40
Oltinsoy	-	-
Angor	-	-
Boysun	-	-
Muzrabot	-	-
Denov	-	-
Jarqo'rg'on	42	3
Qumqo'rg'on	-	-
Qiziriq	-	-
Sariosiyo	-	-
Termiz	-	-
Uzun	-	-
Sherabod	-	-
Sho'rchi	-	-

Surxondaryo viloyati bo'yicha akademik litseylarida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 10 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumaniga qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 11 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Termiz shahriga esa eng past ko'rsatkich, ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 8 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.



Ijtimoiysoha statistikasi bo'limi

76-223-07-34